

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

**SHARQ FALSAFASIDA PROSOTSI AL VA KOGNITIV
RIVOJLANISHGA DOIR PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QARASHLARNING
O'ZIGA XOSLIGI**

*Norqo'ziyeva Dilrabo Sheraliyevna
Qo'qon Universiteti Ta'lif kafedrasи PhD, dotsenti
Maxammadova Rayxona Saydullo qizi
Qoqon DPI 2- bosqich talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada sharq mutafakkirlarining ta'lif-tarbiya va odob-axloqqa oid inson omillaridan, aqliy imkoniyatlaridan unumli, oqilona foydalanishimiz jamiyat taraqqiyotida naqadar salmoqli ahamiyatga ega ekanligi, bunda prosotsial va kognitiv xulq-atvorni rivojlantirishning samarali jihatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ta'lif-tarbiya va odob-axloq, prosotsial va kognitiv xulq-atvor, komil inson g'oyasi, shaxs sifatlari, intilish va qiziqish, multimodal muammo.

Sharq falsafasida ta'lif-tarbiya va odob-axloqqa oid masalalarga alohida e'tibor berib keltingan. Yoshlarga ta'lif va tarbiya berish, ularga kasb-hunar o'rgatish qadimiy an'analarimizdandir. Ayniqsa, farzandlari va shogirdlarini tarbiyalashga, kasb-hunarga yonaltirishga katta ahamiyat berilgan.

Bizga ma'lumki, har-bir davrning o'z mutaffakkirlari, olimu-ulomalari bo'lib, ular ta'lif va tarbiya tushunchasini o'ziga va davr talabiga xos qilib ta'riflashgan. Sharq uyg'onish davrining donishmandi hisoblangan Abu Nasir Farobi o'sha davrdayoq inson omillaridan, ya'ni aqliy imkoniyatlaridan unumli, oqilona foydalanishimizning jamiyat taraqqiyotida naqadar salmoqli ahamiyatga ega ekanligini tushunib yetgan va buni targ'ib etib, butun insoniyat oldida katta obro' qozongan. Jumladan, uning "Fozil odamlar shahri" asari ko'pchilikda katta taassurot qoldirgan. Aynan, shu asarida komil inson qanday xislatlarga ega bolishi kerakligini ta'kidlab, fozil odamlar shahriga faqat komil insongina hokimlik qilishi mumkinligini va quyidagi prosotsial va kognitiv xulq fazilatlarni o'zida mujassamlashtirish zarurligini aytadi. Bularga: 1. Sog'lom bo'lish; 2. Farosatli bo'lish; 3. Kuchli va mustahkam xotiraga ega bo'lish; 4. Ot'kir zehnli va chiroylı so'zlay olish; 5. Ta'lif – tarbiya olishdan ochmaslik; 6. O'znafsiyi tiya bilish va boshqalar.

Shuningdek, Farobi yoshqa ko'plab asarlarida bilim olishga doir masalalarga ham e'tiborini qaratib, bilishning ikki bosqichini: aqliy va hissiy bosqichini ajratib ko'rsatadi. Farobi insonlarni bilim olishida ijtimoiy muhitning roli katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, bu yo'lda tarbiyachilarning tinimsiz mehnati, pedagogik

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

mahorati evaziga o'quvchilarning muvaffaqiyatga erishishiga zamin yaratilishi haqida ta'kidlab o'tadi.

Darhaqiqat, o'quvchining kognitiv sohalari, shaxs xususiyatlari va psixoemotsional jihatdan jamiyatda shaxs sifatida shakllanishida ijtimoiy muhitning, ayniqsa, o'qituvchining tinmasdan mashaqqatli mehnat qilishi, o'quvchilarga nisbatan odil, qat'iy, mas'uliyatli, o'rnak bola olish kabi shaxs sifatlarining roli beqiyos kuchli bo'lishligi hech kimga sir emas.

Qomusiy olim Abu Ali ibn Sino ta'lim – tarbiya va axloqqa oid bir necha asarlarida bola tarbiyasining murakkab ekanligini ta'kidlab otadi. Uning pedagogik - psixologik qarashlari ilmiy asosda qurilgan bo'lib, u bolaning fe'l atvori va tasavvurlari tarbiyasida umuminsoniy g'oyalar qo'llanishini ishlab chiqqan va tarbiyachi ota-onalarga uni qattiq tan jazosidan ko'ra, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma'qulligini ko'rsatadi. Mutafakkirning "Donishnomasi", "Risolai ishq", "Uy xo'jaligi", "Tib qonunlari" kabi qator asarlari O'rta Osiyo xalqlari odob-axloq psixologiyasi va sog'lom turmush tarzini barpo etishda alohida o'rin tutgan yirik tadqiqotlardan hisoblanadi.

Ayniqsa, "Tib qonunlari" asarining bola tarbiyasiga oid "Tarbiya to'g'risida" nomli bobida yosh bolalarda ijobiy xarakter xususuyatlarini shakllantirish usulli va yonalishlarini, oila tarbiyasini ta'riflab o'tadi. Xusan, bolalar kattalar tomonidan amalga oshiriladigan xatti-harakatlarga nisbatan imitatsiya (taqlid) qilishini va odobli, aqli kishilarning ta'sirida barkamol shaxs bo'lib shakllanishini aytib o'tadi. Bu borada ota-onalar va tarbiyachilarga avval o'zлari na'muna ko'rsatishi, ya'ni bolalar oldida turli xil noo'rin fiklar, harakatlar qilmaslik kerakligini keltiradi.

Shuningdek, Ibn Sino "Tadbir al-manozil" asarida "Har bir" odamda yaxshi va yomon xarakter bo'ladi. Shunisi muhimki, kishi ozining xarakteri xulq-atvoridagi yomon illatlarni bartaraf etish yo'lini bilish kerak. Kishi o'zidagi kamchilik va nuqsonlarni tugatishga, o'zini-o'zi tarbiyalashga yordam bera oladi" – deb, keltiradi. Ibn Sino bolaga tarbiya berishda tanbeh va kamchiliklarini ko'satishdan ko'ra bu nuqsonlarni oldini oluvchi, ya'ni bartaraf etuvchi profilaktika usullarini qollash kerakligini uqtiradi.

Ibn Sino bolalarga tarbiya berishda ularning ruhiyatini atroflicha bilish, tushunish, tinglash, kerak paytda uni qo'llab quvvatlash, agarda bola sizni tinglamasa suhbat mazmunini o'zgartirishi, bolaga aytmoqchi bo'lgan maslahatni boshqa vaqtga qoldirish lozim, deydi. Mutaffakkir pedagogik-psixologik qarashlarga oid falsafasida oilaviy tarbiya masalalariga ham alohida e'tibor beradi. Oilada bolalarni tarbiyalashda oila boshlig'ining roli kattaligini va bu jamiyat kelajagi uchun muhimligini aytib o'tadi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Bolalarning ta’lim va tarbiyasiga oid fikrlar qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy asarlarida ham o’z aksini topgan. Uning fikriga ko’ra, bilim olish uchun o’quvchilarda avvalo intilish va qiziqish bo’lishi kerak. Ilm olishning muhim yo’llaridan biri inson hammani do’st tutishi va boshqa insonlarga ham yaxshilik qila olishi lozimligini ta’kidlaydi. Mutaffakkirning mazkur qarashlarida o’quv faoliyatiga nisbatan ehtiyoj tug’ilsagina o’quv faniga nisbatan motivlarni shakllantirish mumkinligini keltirib o’tadi.

Abu Rayhon Beruniy esa ilm olishda axloqiy poklikni yoqori o’ringa qo’yib, ta’lim va tarbiyani bir xil izchillikda olib borganlar komil inson darajasiga erishadilar, deydi. Bolaga bilim berishda o’qituvchi o’z malaka bilimlarni doimo orttirib zamonga moslashib borishi lozimligini uqtiradi. Ilm olishda olingen bilimlarni mustahkamlash uchun takrorlash muhimligi, ta’lim-tarbiya berish jarayonida oquvchilarni toliqtirib va zeriktirib qo’ymasdan, turli pedagogik-psixologik usullarni qollashni, shu orqali ularning tafakkurini boyitib, bilimlarini chuqurlashtira borishini ilgari surgan. Bolalarni o’qishga nisbatan qiziqishlarini so’ndirmaslik uchun ularning yoshiga xos psixologik xususiyatlarini inobatga olish kerakligini ta’riflaydi.

Demak, o’quvchilarga ta’lim–tarbiya berishda ularning qiziqishlari, individual xususiyatlari, yosh xususiyatlari, psixoemotsional holatlarini inobatga olgan tarzda faoliyat olib borish maqsadga muvofiqdir. pedagoglar mashg’ulot o’tkazish davomida fanning mazmun mohiyatiga qarab va bolaning yosh xususiyatlariga mos bolgan, ularni qiziqtiruvchi, diqqatini jalb qiluvchi pedagogik-psixologik noan’anaviy usullardan foydalanish o’quvchilarning kognitiv sohasini rivojlantiradi, shuningdek, shaxslararo munosabatlarda o’zaro hurmat, em’atiya, jipslik, prosotsial xulq ko’rinishlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega boladi.

Buyuk mutaffakkir va shoir Yusuf Xos–Hojib o’zining “Qutatg’u bilig” asarida inson va uning hayotiga oid qarashlarini bayon etadi. U insonning olloh tomonidan yaratilganligini va insonning kelajakda qanday shaxs bo’lib etishi ajdodi hamda kelib chiqishiga, hayotda shug’ullanayotgan faoliyatiga, atrofga nisbatan munosabatlariga bog’liqligini aytib: “Kimning nasli otadan boshlab toza bo’lsa, undan elga yaxshilik, ko’p manfaatlar keladi”, deb ta’kidlaydi.

Maxmud Qoshg’ariy o’zining “Devonu lug’atit turk” asari pand-nasihatlarga, ta’lim-tarbiyaga, o’git va yo’l-yo’riqlarga boy asar bo’lib, kishilarni aql-zakovat bilan ish qilishga, biror-bir kasb-hunarni egallahsga chaqiradi.

Sharq mutafakkirlari qoldirgan bebahो ma’naviy merosimizni har bir zarvarag’ini ochib qaraganimizda, ularning inson tarbiyasi ma’naviyati va mehnatsevarlik

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

xislataliga farzandlarni yetuk barkamol insonlar qilib tarbiya berish va kasbhunarlarni o'rgatishga juda ko'plab qimmatli fikrlarni olish mumkin.

Jadidchilik matabining namoyondalaridan biri Abdulla Avloniy ham o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" nomli asarida axloq haqida fikr yuritib, uni shakllantirishda millatimizga xos bo'lgan urf-odatlar, milliy an'analarimiz va avlodlarimiz qoldirgan tarbiya usullariga asoslanib bolalarga ta'sir o'tkazish haqida mulohazalar keltirib o'tadi. U o'z asarida oila tarbiyasi borasidagi fikrlarini Bedilning qiyidagi fikrlarini keltirish orqali bayon etadi:

Birinchi g'ishtni qiyshiq qo'yar ekan me'mor,
Osmonga etsa ham qiyshiqidir devor.

Aytish joizki, mazkur muammo qadim tarixga ega bo'lib, mamlakatimiz hamda horij olimlari tomonidan u yoki bu darajada ishlangan, biroq yoshlarga oid prosotsial va kognitiv xulq muammosi multimodal bo'lganligi bois, u o'ta murakkab va ko'p qirralikdir.

Demak, yoshlarni tarbiyalashda oilaviy muhitning ta'siri, unda shakllangan tarbiya usullari bola kelajagi uchun asosiy poydevor rolini bajarishligini yosh va bo'lajak oila qurishni rejalashtirayotganlar ongiga singdirib borish bugungi kunning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash kerakki, sharq mutafakkirlari qoldirgan asarlarni zarvaraqlaganimizda, ularning inson tarbiyasi, ma'naviyati hamda mehnatsevarlik xislataliga, yoshlarni ruhan sog'lom, ma'naviy yetuk, barkamol shaxs qilib tarbiyalash borasidagi oltinga teng qimmatli fikrlarini o'rghanish va hayotga tadbiq etish joizdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurahmonov F.R. Qadimgi sharqda psixologik fikrlar taraqqiyoti. "Noshir", Toshkent-2012.-72-bet.
2. Атаева Н., Расулова Ф., Ҳасанов С. Умумий педагогика. – Т.: «Фан ва технология», 2011. - 430-бет.
3. Муратова, КГПИ Г. "АКТИВИЗАЦИЯ ДВИГАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛЬНИКОВ ПУТЁМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОРЕВНОВАТЕЛЬНО-ИГРОВОГО МЕТОДА." Science Promotion 4.1 (2023): 24-29.
4. Makhmudovich, Gafurov Abdushokir, Gafurov Abduvohid Makhmudovich, and Yuldasheva Jamilakhan Mukhtorovna. "The role of gymnastics in the educational process." Open Access Repository 8.12 (2022): 5-8.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

5. Mukhtorovna, Yuldasheva Jamilakhan. "EFFECTIVE WAYS OF MANAGING THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN THE FIELD OF SPORTS." Open Access Repository 8.12 (2022): 693-697.
6. Mukhtarova, Yuldasheva Jamilakhan, Melikhujayeva Noilakhan, and Mirzarahimova Muhtasarkhan. "THE PECULIARITY OF TAKING GYMNASTICS CLASSES WITH STUDENT GIRLS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.03 (2023): 47-51.
7. Umarov, Abdusamat Abdumalikovich, and Zulkumor Urinboyevna Umarova. "Talaba-yoshlarni jismoniy sifatlarini rivojlantirishda milliy va harakatli o‘yinlarning o‘rni." Scientific progress 4.1 (2023): 260-265.
8. G’ayratovich, S. S., & Akramjonovich, Y. I. (2023). Development principles of young sportsmen's strength by updated technologies. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(12), 32-34.
9. Dexqonov B.B. (2022). Spiritual Training of Young Athletes. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(04), 144-146.
10. Abdukhamedovich, Moydinov Iqboljon. "IMPROVING THE FUNCTIONAL SKILLS OF THE BELT WRESTLER." Open Access Repository 9.9 (2023): 109-114.
11. Abdukhamedovich, Moydinov Iqboljon. "DEVELOPING TECHNICAL TRAINING OF WRESTLERS WITH SPECIAL MOVING GAMES." Open Access Repository 9.9 (2023): 130-136.
12. Abdukhamedovich, Muydinov Ikboljon, Sarukhanov Arsen Albertovich, and Azizov Mukhammadjon Azamovich. "Physical culture as a motor factor of mental performance of adolescents." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 128-134.